Tashvishli buzilishlarni korrektsiya qilishda kognitiv-bixevioristik terapiya usullari	821
Sattarova Shaxnoza Qo'chqarovna, Xamroyeva Zarina Shaxriyevovna	



Rahbar va pedagogik muhit: nazariy va amaliy asoslar	824
<i>Xodjimatrova Nazira Toshmatovna, Gaziyeva Nigora Shamsiddinova</i>	
O'smirlik – deviant xulq shakllanishi uchun senzitiv davr sifatida	827
<i>Sattarova Shahnoza Qo'chqarovna, Erkinjonova Raximaxon Baxtiyor qizi</i>	
Цифровые образовательные технологии как средство формирования коммуникативной компетенции при обучении русскому языку как иностранному	830
<i>Ескараева Г. Б.</i>	
Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning amaliy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	833
<i>Muxiddinova Nilufar Baxodirovna</i>	
Talabalar mediakompetentligini baholash usullari va mezonlari	839
<i>Alimov Zokir Chori o'g'li</i>	
STEAM ta'lim texnologiyasi orqali tabiiy fanlarni o'qitish va o'quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish	844
<i>Ergasheva Malohat Tursunovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini aniqlash va baholash mezonlari	847
<i>Hamzayeva Nigina Azamjonovna</i>	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarni o'qitishda fanlararo bog'liqlik	852
<i>Musayeva Dilfuza Abdurahmonova</i>	
Ta'limda muloqot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan metodlar tizimini ilmiy tahlil qilish	857
<i>Kobulova Maktuba Urmonjonovna</i>	
Shaxs psixologik portreti va unga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	862
<i>Ataqulov Bekzod Abdurashitovich</i>	
Zamonaviy didaktik paradigmasda talabalar ta'lim natijalarini tashxislash	866
<i>Tursunova Feruza Otaqulovna</i>	
Ingliz tilini bilishning sport talabalari uchun ahamiyati	869
<i>Azimova Umirxon Odilovna</i>	
Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid ma'naviy va axloqiy qarashlari	873
<i>Baxtiyor Suvankulov</i>	
Oliy ta'limda talabalarning mustaqil va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishning metodik asoslari	877
<i>Abduraxmonova Dinara Yusupovna</i>	
Tarbiya jarayonida pedagogik boshqaruv uslublari: nazariy asoslar va amaliy mexanizmlar	881
<i>Farsaxonova Dilafruz Rizaxonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim davlat talablari va o'quv dasturlarida nutq hamda mustaqil fikrlash masalalari	886
<i>Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna, Qobilova Dildora</i>	
Zamonaviy ta'lim texnologiyalari orqali talabalarning kasbiy loyihaviy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari	890
<i>Xamidova Feruza Turdiyevna</i>	
Raqamli davr bolasini tarbiyalashda psixologik muvozanatni saqlash orqali sog'lom shaxsni shakllantirish	896
<i>Hakimova Ziyoda Ibrohim qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik intellektini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	900
<i>Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi</i>	
O'qish savodxonligini rivojlantirishda qo'llaniladigan nazariy modellar	903
<i>Abdiraimova Xusnobod Samat qizi</i>	
Talabalar mustaqil ta'limini individuallashtirish metodlari	910
<i>Arzikulova Surayyo Fayzullayevna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishning amaliy asoslari	914
<i>Xoliqulova Kumush Ilxom qizi</i>	
Psixologik-pedagogik yondashuvlar asosida mahdudlik holatlarini bartaraf etishning takomillashtirilgan metodikasi (maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari misolida)	919
<i>Mamatqulova Dinora Yunus qizi</i>	

Ilg'or pedagogik texnologiyalar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish	923
Uzoqova Husnora	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish jamiyatning asosiy talabi sifatida	927
Toshimova Gulzoda Jamoliddinovna	
Sun'iy intellekt vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy va moliyaviy savodxonligini shakllantirish mexanizmlari	930
Jumayeva Feruza Sayidovna	
O'qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash (2-sinf misolida).....	936
Abdiyeva Shakila Ishkuvatovna	
Turistik faoliyatda ijtimoiy muloqot kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	941
Abdullayeva Sevara Yuldashevna	
Oilaning katta avlodi va maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtaqidagi psixologik munosabatlarning nazariy asoslari	944
Ashirova Sojida Baxromovna	
Yosh pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda tajriba almashishning ilmiy-metodik asoslari va usullari	948
Dildora Rustam qizi Fozilova	
Maktabga tayyorlov bosqichida o'quvchilar grafomotorikasini individual yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	951
Jumayev Sanjar Soatmumin o'g'li	
Uzluksiz ta'limda inklyuziv yondashuvning samaradorligini ta'minlovchi pedagogik va ijtimoiy omillar.....	955
Kobilova Shaxnoza Xudayshukurovna	
Tolerantlik tushunchasining mohiyati va uning ta'lim tizimidagi ahamiyati.....	958
Kurbanova Shoirra Abduraximovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni mashg'ulotlar jarayonida TRIZ texnologiyasi bilan tanishtirishning ahamiyati.....	961
Meliboyev Anvar Rashidovich	
The Conceptual Framework and Pedagogical Affordances of Vtss: A New Paradigm for Specialised Instruction.....	964
Nilufar Sabirova	
O'zbek oilalarida axloqiy tarbiya munosabatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	967
Qurbonova Go'zal Saydaxmatovna	
Fizika o'qitishda 4K kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari	973
Saydayev Obid Bahodir o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion faoliyat ko'nikmalarini takomillashtirishning modulli texnologiyalari	979
Saliyeva Perdexan Alimbetovna	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak ijtimoiy soha xodimlarining kognitiv kompetentligini rivojlantirish	984
Qaxxorov Shahriyor Yodgorovich	
Maktabgacha ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirish usullari.....	987
Sattorova Shaxlo Axadovna, Omonova Shoxista Anvar qizi, Raximova Durdona Murot qizi	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt elementlaridan foydalanishning afzalliklari	990
Sulaymanova Dildora Baxtiyorovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik sanalarga bag'ishlab ma'rifiy tadbirlar o'tkazishning afzalliklari.....	993
Tohirova Baxtigul Hasanboy qizi	
Pedagogik ta'limda talabalarning gnoseologik motivatsiyasini rivojlantirish zaruriyati	996
Xudoyqulova Dilrabo Shodmonovna	
Сопоставление русских и узбекских пословиц: сходства, различия и культурный контекст	1000
Касымова Феруза Суннатовна	
Теоретические аспекты развития мотивационной сферы в психологии изучения личности	1003
Маликова Эвелина Тимуровна	



Психологическая устойчивость личности в исследованиях узбекских учёных: теоретический анализ и применение концепции	1007
Саитходжаев Зуфар Хусан угли	
Biologiya ta'limida kognitiv yondashuv asosida o'quvchilarning universal o'quv faoliyatlarini shakllantirish	1011
Daminova Fayoz Abdixakimovna	
Milliy musiqa merosini zamonaviy ta'limda saqlash muammolari va yechimlari.....	1014
Haydarov Qutlug' Hamdamovich	
Sun'iy intellekt: maktabgacha ta'lim tashkilotining taraqqiyotini ta'minlovchi zamonaviy texnologiya sifatida.....	1017
Axmadaliyeva Mohlaroy Toxtapo'latovna	
Shukur Xolmirzayevning ijtimoiy-etnografik folklorizm yaratish mahorati	1021
Mamayusupova S. M.	
Androgogik va interfaol metodlarni jismoniy tarbiya mashg'ulotlarda foydalanish samaradorligi.....	1024
Normamatov Muxiddin Abdumuminovich	
Tinglab tushunishning psixolingvistik xususiyatlari.....	1028
O. V. Kon	
Gi de Mopassanning hikoyachilik mahorati va badiiy uslubi.....	1032
Yuldashev Bahodir Bekmuratovich	
Художественный мир и стилистическая система прозы Патрика Модiano.....	1035
Давронова Зульфия Бобоевна	

ZAMONAVIY TA'LIM TEKNOLOGIYALARI ORQALI TALABALARNING KASBIY LOYIHAVIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Xamidova Feruza Turdiyevna

Navoiy davlat universiteti, "Pedagogika" kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Maqolada ta'lim texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish orqali talabalarda kasbiy loyihaviy kompetensiyalarni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik tizim va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning ahamiyati, o'quv dasturlarini loyihalash, metodik hamda tashkiliy innovatsiyalar, shuningdek, o'quv jarayonini boshqarish, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik hamda ijtimoiy-pedagogik muhitning o'rni tahlil qilingan. Maqolada o'quv jarayonining davlat ta'lim standartlariga muvofiqligi, talabalarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish, pedagogik shart-sharoitlarni yaratish hamda ta'lim resurslaridan samarali foydalanish masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, kompetentli yondashuv, kasbiy loyihaviy kompetensiyalarni shakllantirish, demokratik munosabatlar muhitini rivojlantirish va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim texnologiyalari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kasbiy loyihaviy kompetensiya, kompetentli yondashuv, pedagogik jarayon, o'quv jarayonini boshqarish, innovatsion pedagogik texnologiyalar, o'qituvchi va talaba hamkorligi, demokratik muhit, ta'lim resurslari.

Abstract: The article examines the theoretical and practical aspects of developing students' professional project competencies through the implementation of educational technologies in the learning process. It analyses the significance of modern pedagogical systems and student-centred approaches, curriculum design, methodological and organisational innovations, as well as classroom management, teacher-student collaboration, and the role of the socio-pedagogical environment. The study also considers the alignment of the educational process with state educational standards, the development of students' independent thinking, creativity, and communication skills, the creation of appropriate pedagogical conditions, and the effective use of educational resources. Furthermore, the importance of a competence-based approach, the formation of professional project competencies, democratic educational relations, and the application of innovative pedagogical technologies is scientifically substantiated.

Key words: educational technologies, student-centred learning, professional project competency, competence-based approach, pedagogical process, classroom management, innovative pedagogical technologies, teacher-student collaboration, democratic environment, educational resources.

Аннотация: В статье рассмотрены теоретические и практические аспекты развития профессиональных проектных компетенций студентов посредством внедрения образовательных технологий в учебный процесс. Проанализирована значимость современной педагогической системы и личностно-ориентированного подхода, проектирования учебных программ, методических и организационных инноваций, а также управления учебным процессом, сотрудничества преподавателя и студентов и роли социально-педагогической среды. В работе также освещены вопросы соответствия образовательного процесса государственным образовательным стандартам, развития у студентов навыков самостоятельного мышления, творческого подхода и коммуникативных умений, создания педагогических условий и эффективного использования образовательных ресурсов. Кроме того, научно обоснована важность компетентностного подхода, формирования профессиональных проектных компетенций, демократических отношений в образовательной среде и применения инновационных педагогических технологий.

Ключевые слова: образовательные технологии, личностно-ориентированное обучение, профессиональная проектная компетенция, компетентностный подход, педагогический процесс, управление учебным процессом, инновационные педагогические технологии, сотрудничество преподавателя и студентов, демократическая образовательная среда, образовательные ресурсы.



KIRISH

Bugun mamlakatimizda qator o'qituvchilar pedagogik g'oyalar targ'ibotchisiga aylanishdi, tasdiqlangan dastlabki materiallar bilangina emas, balki o'zining shaxsiy ijodiy rejasi asosida ish yuritmoqdalar. Yangilikka, erkinlikka, mustaqillikka intilish hozirgi zamon o'qituvchisining shaxs sifatleri tarkibiga kirib ulgurd. Endi an'anaviy o'qitish tizimi o'z o'rmini milliy istiqloq g'oyasi bilan sug'orilgan va qat'iyon ilmiy asosda tashkil etilayotgan zamonaviy pedagogik tizimga bo'shatib bermoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Rus olimasi, pedagogika fanlari doktori Lyash Asya Anatolevna "Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatlarida axborot-ta'lim tizimlaridan foydalanishga o'rgatish metodikasi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiya ishida axborot va ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan yondashuvni ilgari surgan. Ta'limni axborotlashtirishning bu yo'nalishi ta'limning nafaqat boshqaruv, balki to'g'ridan-to'g'ri o'qitish va tarbiyaviy funksiyalarini amalga oshirish uchun ham xosdir. Masalan, zamonaviy ta'lim doirasida ham, an'anaviy ta'lim doirasida ham turli xil elektron o'quv-uslubiy majmualar, raqamli ta'lim resurslari, ta'lim portallari, veb-saytlar va boshqa vositalardan yetarlicha keng foydalanishni keltirish mumkin. Shu bilan birga, so'nggi paytlarda turli axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalangan holda ta'lim jarayonini tashkil etish va o'ta-onalar bilan o'zaro hamkorlik qilish masalalari juda dolzarb bo'lib qolganini ta'kidlaydi [6].

Belaya R.S. (2013) ning fikriga ko'ra, ta'lim taraqqiyotining hozirgi bosqichi kompetentli yondashuv bilan uzviy bog'liq bo'lib, mohiyatan ta'limdagi nazariy bilimlar bilan kasbiy loyihaviy faoliyatning real mavjud ehtiyojlari o'rtasida muvozanatni o'rnatishga qaratilgan. "Kompetentli yondashuv" kategoriyasini quyidagicha interpretatsiya qilish mumkin: bu ta'lim maqsadlarini ta'riflash, ta'lim mazmunini tanlash, ta'lim jarayonini tashkil etish va ta'lim natijalarini baholashning umumiy prinsiplaridan iborat tizimdir [3].

Galustyan O.V. (2020) ham xuddi shunday fikr bildiradi: kompetentli yondashuv ta'lim jarayonining qaytadan yo'naltirilishini ta'minlaydi. Bunda bilimlar hamda shakllangan ko'nikma va malakalar boy axborot-kommunikatsiya maydoni mavjud bo'lgan bozor iqtisodiyoti sharoitlarida bo'lajak mutaxassisning kasbiy loyihaviy faoliyatga nisbatan salohiyati va qobiliyatini rivojlantiradigan kompetensiyalar majmuasini egallash uchun sharoit yaratishga xizmat qiladi [4].

Ta'lim-tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda ilmiy-texnika taraqqiyoti va yangi texnologik rivojlanish sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun davlat xizmatini rivojlantirish, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish hamda ilg'or tajribalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. R. Safarova, O.A. Abdullina, L.I. Bojovich, V.S. Ilin, Ye.A. Kryukova, A.N. Leontev, N.V. Kuzmina, L.M. Mitinalarning ilmiy ishlarida mazkur yondashuv o'z ifodasini topgan.

Sh.S. Sharipovning fikricha, kompetentlik – shaxs bilim, ko'nikma va tajribalarining uning ijtimoiy-professional mavqei hamda o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda, muammolarni hal etishda yetariligi va haqiqiy moslik darajasini ifodalaydi [6]. Talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari o'zining pedagogik xususiyatlariga ega. Ular orqali talabalar o'rtasida demokratik munosabatlarni ta'minlash imkoniyati yaratiladi, talaba va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlar barqarorlashadi, hamjihatlikka asoslangan ijobiy muhit vujudga keladi, talabalarda erkin tanlov va o'z fikrini himoya qilish ko'nikmasi shakllantiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi mazkur mavzuni yoritishda nazariy va amaliy ma'lumotlarni yig'ish hamda ularni tahlil qilishning uyg'unlashgan usullariga asoslandi. Tadqiqot jarayonida, avvalo, ta'lim texnologiyalari, kasbiy loyihaviy kompetensiya va kompetentli yondashuvga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlar, dissertatsiyalar, monografiyalar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda o'quv-uslubiy manbalar tahlil qilindi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar mazmunini aniqlash maqsadida kuzatish, suhbat va taqqoslash usullaridan foydalanildi. Talabalarining kasbiy loyihaviy kompetensiyalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda pedagogik kuzatuv natijalari, o'quv jarayoni materiallari va metodik tavsiyalar o'rganildi. Olingan ma'lumotlar mazmunini tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va tizimlashtirish usullari asosida qayta ishlandi. Tahlil davomida ta'lim texnologiyalarining talabalarining mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, muloqotga kirishuvchanligi va kasbiy faoliyatga tayyorgarligiga ta'siri pedagogik nuqtai nazardan baholandi. Shu asosda mavzuga doir ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Talabalarda kelgusi pedagogik faoliyatida zarur bo'ladigan kasbiy loyihaviy kompetensiyalarni ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirish jarayonidagi bilimlar, tajribalar hamda nutq vositasida kirishimlilik, muloqotmandlikka moyillikni ko'rsatuvchi topshiriq va vazifalarni samarali amalga oshira olishlariga oid umumiy layoqatlari muhim o'rin egallaydi.

Talabalarda kelgusi pedagogik faoliyatida zarur bo'ladigan kasbiy loyihaviy kompetensiyalarni ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirishda ikki pedagogik xususiyatga e'tiborni qaratish lozim. Bular:

1. O'quv jarayonining davlat ta'lim standartlariga mosligi.
2. O'quv jarayonining iste'molchilar talablariga mosligi.

O'qitish sifatini ta'minlashda ta'lim muassasasidagi manbalarning sifati ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday muhim manbalar sirasiga ta'lim muassasasidagi pedagogik kadrlar, informatsion-metodik, ta'limiy-texnologik hamda moddiy-moliyaviy manbalarni kiritish mumkin.

Shu bilan bir qatorda, o'qitish texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish uchun quyidagilarni tahlil qilish talab etiladi:

- amalda qo'llanilayotgan o'quv dasturlarining samaradorligi va maqsadga muvofiqligi;
- metodik hamda tashkiliy innovatsiyalar;
- mazkur innovatsiyalarning o'qitish natijalari sifati va bitiruvchilarning bilimdonlik darajasiga ko'rsatadigan ta'siri;
- o'quv jarayonining texnologik jihatdan ta'minlanganlik darajasi;
- fanlar bo'yicha o'qitish sifati baholanishini ta'minlovchi kvalimetrik va tashxislash metodikalarining o'qituvchilar tajribasida foydalanilganligi hamda sinovdan o'tkazilganligi kabilar.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'lim tizimining joriy holati va mavjud muammolari tahlil qilinar ekan, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda informatsion-metodik hamda ta'limiy-texnologik manbalarni tahlil qilish ham alohida ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Uning asosiy ko'rsatkichlari: ^[7]

- ekspert xulosalari;
- nazorat va tekshirish natijalarini ifodalovchi materiallar;
- yig'ilishlar hamda kengashlar materiallari;
- metodik seminarlar materiallari kabilar.

Talabalarda kelgusi pedagogik faoliyatida zarur bo'ladigan kasbiy loyihaviy kompetensiyalarni ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirishda muassasaning moddiy-moliyaviy manbalarini hisobga olish ham nihoyatda zarur. Mazkur manbalar sirasiga:

- ta'lim muassasasida amalga oshiriladigan alohida tadbirlarni moliyalashtirish manbalari;
- qabul qilingan me'yorlar va talablarga mos tarzda o'quv materiallari mazmuniga muvofiq keladigan moddiy-texnik bazaning tavsifi;
- ta'lim muassasasidagi sinf xonalari va o'quv kabinetlarining kompyuterlar, audio jihozlar, zallar va inventarlar bilan ta'minlanganligi;
- ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazani kengaytirishga yo'naltirilgan rejasi;
- o'qitish jarayoni sifati bilan o'quv jarayoni natijalarining mos kelish darajasi;
- ta'lim muassasasida masofaviy ta'limni joriy etish uchun moddiy-texnik bazaning mavjudligi kabilarni kiritish mumkin.

Zamonaviy auditoriya mashg'ulotlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish tamoyillari va mexanizmlari o'ta murakkab, ko'p qirrali pedagogik jarayonda amalga oshadi. Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy taraqqiyoti avvalo yoshlarimizning sa'y-harakatlariga bog'liqdir. Bularning barchasi bugungi kun yoshlarini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarda kelgusi pedagogik faoliyatida zarur bo'ladigan kasbiy loyihaviy kompetensiyalarni ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirish uchun ta'lim mazmuni birinchi darajali mohiyat kasb etadi. Uning ko'rsatkichlari sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin: ^[9]



- ta'lim muassasasida amal qilinayotgan modernizatsiyalashtirilgan ta'lim dasturlarining samaradorligi;
- majmualarda ta'lim bosqichlariaro uzviylik va uzluksizlikning ta'minlanganligi va boshqalar.

O'qitish sifatining namoyon bo'lishida o'qituvchilarning shaxsiy yutuqlari muhim o'rin egallaydi.

Talabalarda kelgusi pedagogik faoliyatida zarur bo'ladigan kasbiy loyihaviy kompetensiyalarni ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirishda ta'lim muassasasi faoliyatining ijtimoiy samaradorligi ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- o'quv jarayoni subyektlarida mazkur jarayondan qoniqishning hosil bo'lishi;
- o'quv jarayonining tashkil etilishi, borishi, natijalari va sifatining namoyon bo'lishi;
- o'quv jarayoni subyektlarining o'zaro hamkorligi;
- ta'lim muassasasining mavjud mavqei;
- ta'lim muassasasida amal qiladigan strategiyalar kabilar.

Ta'lim muassasalari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasi va mazkur darajadan yuqori ta'lim muassasalarining qoniqishi ham o'qitish sifatini ifodalaydi.

O'qitish sifatini boshqarishning muhim mexanizmi unga o'quv jarayonini yaxshilash orqali ta'sir ko'rsatishda namoyon bo'ladi. Uni amalga oshirishning muhim sharti o'qitish sifati monitoringini amalga oshirishdan iborat. Mazkur monitoring maqsadga yo'naltirilgan, maxsus tashkil etilgan hamda o'qitish sifatida ro'y beradigan asosiy o'zgarishlarni uzluksiz kuzatib boradigan jarayondir. Uning asosiy maqsadi o'z vaqtida ta'lim jarayonini boshqarishga oid to'g'ri qarorlar qabul qilish, unga tuzatishlar kiritish, bashorat qilish va materiallarni tahlil etish hamda uni takomillashtirishga xizmat qiladigan sharoitlarni yaratishdan iborat.

Talabalarda ko'nikma va malakalar vositasida ularning bilish mustaqilligini shakllantirish muhim hisoblanadi:

- a) didaktik jarayonning mazmuni – barcha dasturlar uchun mazmun yagona hisoblanadi;
- b) o'quv jarayoni doirasida o'rgatish faoliyati davomida o'qituvchining yo'naltiruvchilik, rahbarlik va maslahat beruvchilik mavqei namoyon bo'ladi;
- c) o'quv jarayoni doirasida pedagogik faoliyat talabalarning yetakchilik mavqei bilan uyg'unlashadi.

Talabalarda kelgusi pedagogik faoliyatida zarur bo'ladigan kasbiy loyihaviy kompetensiyalarni ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirish quyidagi tarkibiy qismlarga ajratiladi:

1. Moyillik hosil qiluvchi – talabalarni faol o'rganish jarayoniga jalb qiluvchi hamda bilish faoliyatining barcha bosqichlarida faollikni saqlab qoluvchi qiziqishlari, ehtiyojlari va mayllari.
2. Yo'naltiruvchi – natijalarni mustaqil baholash, o'zgalarning bahosiga tayangan holda o'zlari va faoliyatlari bergan baholari, o'rganish jarayonlarini mustaqil boshqarishlari va tuzatishlar kiritishlari, o'z-o'zlarini boshqarishlari kabilar.

Ushbu qismlarning barchasi o'zaro aloqadorlikka ega. Ta'lim muassasasi va unda tahsil olayotgan talabalarning rivojlanishiga beriladigan baho ham o'qitish sifatini aniqlashda muhim o'rin tutadi. O'qitish maqsadlariga erishish uchun o'qituvchi va talabalarning o'zaro hamkorligi hamda o'z faoliyatlarini mustaqil boshqarishlari muhim hisoblanadi:

- talabalarning hamkorlikka asoslangan faoliyatlarini tashkil etish;
- o'quv-tarbiya jarayoni sifati uchun o'qituvchi hamda talabalar o'rtasida mas'uliyatni teng taqsimlash talab etiladi.

O'qitish sifati – ijtimoiy-pedagogik hodisa bo'lib, O'zbekiston jamiyatida ta'limning holati va natijadorligini aniqlovchi muhim omil hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, "Inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiya va qo'yilmalarning o'sishini, hozirgi zamonda demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini doimo o'zining asosiy ustuvor yo'nalishlari qatoriga qo'yadigan davlatgina o'zini namoyon eta olishi mumkin", degan strategiya asosida amalga oshirilgan islohotlar o'zining amaliy samarasini bermoqda.



Ta'lim texnologiyalarini amaliyotga tatbiq qilish jarayonida yangi mazmun va mohiyatga ega bo'lgan boshqaruv faoliyati yaratuvchanlik va ijodkorlikka intilish hissi bilan yo'g'rilgan. Bugungi kun o'qituvchisi ta'lim sifati va uzluksizligini ta'minlash, o'zining kasbiy darajasi va malakasini doimiy ravishda oshirib borish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish asosida o'quv jarayonini uzluksiz takomillashtirib borish hamda kasbiy masalalarni yechishga moyil bo'lishi zarur.

Ta'lim texnologiyalarining xarakterli jihatlari ta'lim subyektlarida izlanuvchanlik faoliyatining birgalikda amalga oshirilishidadir. Hissiy-obrazli muhokama va tanlov natijasida shaxslararo mustahkam hamkorlikdagi harakat vujudga keladi. Hamkorlikka oid qat'iy talablarning ishlab chiqilganligi uni o'quv jarayoni bilan birgalikda amalga oshishiga asos bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, ta'lim texnologiyalari o'qituvchidan muayyan pedagogik-psixologik mahorat va yuqori darajadagi fidoiyligni talab qiladi.

Ta'lim texnologiyalari didaktik jarayonlarni tahlil qilish va o'z faoliyatini tashkil etish metodlarini izchil tatbiq etishga yo'naltirilgandir.

Janubiy Koreya, Fransiya, Yaponiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan davlatlar tajribasida talabalarning tafakkur erkinligi va mustaqil fikrlashini shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratiladi. OTMLarda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish sohasidagi kompetensiyaviy yondashuvga ko'ra talabalarning bilim olish jarayonida o'z kuchiga bo'lgan ishonchini tarbiyalash va mustaqil fikrlashini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, talabalarda kelgusi kasbi uchun zarur bo'ladigan kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha xalqaro dasturlar, assessment topshiriqlarini tizimli qo'llash orqali ularning o'quv-biluv motivatsiyasini jadallashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa talabalarda kasbiy kompetensiyani rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida dolzarb muammolardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Respublikamizda ta'lim tizimini rivojlantirish, talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish hamda har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son1 Farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish hamda inson kapitalini rivojlantirish muhim vazifalar sifatida belgilandi.

Taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug'lashga yo'naltirilgan ijtimoiy himoya siyosatini amalga oshirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish hamda jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Pedagogika fanida bunday tizimni shaxs ongini shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik jarayon sifatida baholash mumkin. Unda amalga oshadigan ichki o'zgarishlar shaxs ongi strukturasi faoliyatini ta'minlaydi va bu, o'z navbatida, ta'lim-tarbiya sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotlarimiz mobaynida ta'lim texnologiyalari orqali talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash uchun bu sohada mavjud bo'lgan yondashuvlar, tushunchalar, qarashlar va ta'limotlarni to'plash, tasnif qilish hamda ularni o'qituvchi faoliyatiga joriy etish maqsadida tegishli ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish zarurligi aniqlandi.

Dunyo va respublikamizda olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, o'qituvchi bilan talaba hamkorligini tashkil etish, pedagogik jarayonni boshqarish, pedagogik jarayondagi nomuntazam hodisalarni o'rganish, dunyoni yangicha izohlash masalalarini sinergetika doirasida tadqiq etish, ta'lim mazmunini umumevropa xalqaro standartlari asosida tashkil etish hamda mutaxassislarining umummadaniy, maxsus, kasbiy va shaxsiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan masalalarni o'rganish zarurati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-4312785>
2. Aliev I.T. "Pedagogika va psixologiya" o'quv qo'llanma. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2012-yil, 244 bet.
3. Абдуллина О.А. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования: для пед. спец. высш. учеб. заведений. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Просвещение, 1990. – С. 40–141.
4. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Hasan Hakim Termiziy. Navodirul usul fi ma'rifati ahadiysir Rasul. – Bayrut, 2010. – VII. 156–157.
5. Azizxadjayev N.N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat". – Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – 160 bet.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilning 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>



6. Абади Хусейн. Оценка и измерение в психологических и педагогических науках. – Мешхед, 1994. – 347 с.
7. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: ped. fan. dok. diss. avtoreferati. – Toshkent, 2003. – 44 b.
8. To'rayev B.Z. Informatika va axborot texnologiyalari sohasi pedagoglarining umumkasbiy fanlar integratsiyasida kasbiy kompetentligini shakllantirish: ped. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – T., 2018. – 48 b.
9. Sidiqova D.Sh. Masofaviy ta'lim sharoitida talabalarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish metodikasi: ped. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Buxoro, 2023. – 47 b.
10. Шарипов Ш. Касб таълими ўқитувчиси компетентлигини таъминлашда илмий-методологик ёндашувлар.
11. <http://dr-sharipov.com/2014/03/02/>
12. <https://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
13. <https://www.coe.int/en/web/common-european-framework-reference-languages/level-descriptions>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.